

---

## Ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'riladi

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 12 yanvardagi "Sud qarorlarini qayta ko'rish institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-665-sonli Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar endilikda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'riladi.

Endilikda fuqarolar o'z hisobidan ma'muriy bayonnomaning ko'chirma nusxasini, shuningdek, sud majlisining audio yoki videoyozuvini olishga haqli.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi qaror ustidan ma'muriy bayonnomani tuzgan organ tomonidan ham shikoyat berilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni nazorat tartibida ko'rish bekor qilinib, apellyatsiya instantsiyasi joriy etildi.

Sud hujjatining noqonuniyligi, asoslantirilmaganligi bilan bir qatorda ularning adolatsizligi ham sud hujjatini kassatsiya tartibida o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'lishi belgilandi.

Kassatsiya instantsiyasi sudi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni Oliy sud raisi, Bosh prokuror yoki ularning o'rinbosarlari kiritgan protestga ko'ra kassatsiya tartibida takroran ko'radi.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov

2021-02-22 11:20:35